

YOSHLAR TARBIYASIDA ISLOMIY AN'ANALAR VA ULARNING SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

X.U. Samatov

Ilmiy rahbar: Falsafa fanlar doktori dotsenti

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injiniring fakulteti DI_24-07 guruhi talabasi

Xudoyberdiyeva Zarnigor Bobojonovna

Elektron pochta manzili: xudoyberdiyevazarnigor084@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15379478>

Annotatsiya. Yoshlar tarbiyasi har bir jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va ruhiy jihatdan kamolga yetkazishda islomiy qadriyatlar, diniy an'analar va urf-odatlarining o'rni chuqur tahlil qilinadi. Islom dini doimo inson axloqini yuksaltirish, halollik, poklik, sabr-toqat, ota-onaga hurmat, ilm olish kabi qadriyatlarga urg'u bergan. Maqolada Qur'oni karim va hadisi shariflar asosida islomiy tarbiya metodlari, yoshlar ongini shakllantirishdagi asosiy vositalar va ularning zamonaviy sharoitda qanday qo'llanilishi muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada islomiy an'analarni yoshlar tarbiyasiga tatbiq etishda samarali yondashuvlar, muhitning roli va tarbiyaning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Islomiy an'analar, yoshlar tarbiyasi, axloq, ma'naviyat, Qur'on, Hadis, diniy qadriyatlar, tarbiya usullari, oila, jamiyat, mas'uliyat, ilm.

ISLAMIC TRADITIONS IN YOUTH EDUCATION AND THE CRITERIA FOR THEIR FORMATION

Abstract. The upbringing of youth is one of the most important factors determining the future of any society. This article analyzes the role of Islamic values, religious traditions, and customs in the spiritual, moral, and psychological development of the younger generation. Islam has always emphasized the importance of honesty, purity, patience, respect for parents, and the pursuit of knowledge. The article explores Islamic educational methods based on the Qur'an and Hadith, the main tools in shaping youth consciousness, and how these methods are applied in the modern world. It also discusses effective approaches to instilling Islamic traditions in youth, the role of environment, and step-by-step educational strategies.

Keywords: Islamic traditions, youth education, morality, spirituality, the Qur'an, Hadith, religious values, educational methods, family, society, responsibility, knowledge.

ИСЛАМСКИЕ ТРАДИЦИИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ И КРИТЕРИИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. Воспитание молодежи является одним из важнейших факторов, определяющих будущее любого общества. В данной статье анализируется роль исламских ценностей, религиозных традиций и обычаев в духовном, нравственном и психологическом развитии подрастающего поколения. Ислам всегда придавал большое значение таким качествам, как честность, чистота, терпение, уважение к родителям и стремление к знаниям. В статье рассматриваются исламские методы воспитания на основе Корана и хадисов, основные средства формирования сознания молодежи и их применение в современных условиях. Также обсуждаются эффективные подходы к внедрению исламских традиций в воспитание молодежи, роль среды и поэтапные стратегии воспитания.

Ключевые слова: Исламские традиции, воспитание молодежи, нравственность, духовность, Коран, хадисы, религиозные ценности, методы воспитания, семья, общество, ответственность, знания.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimining haddan ziyod kuchaygani, internet, ijtimoiy tarmoqlarning keng yoyilgani sababli, yoshlarning ma'naviy olami ko'plab tahdidlarga duch kelmoqda. O'zligini yo'qotish, begona g'oyalar, g'arblik madaniyat ta'sirida milliy qadriyatlardan uzoqlashish holatlari uchramoqda. Shu sababli yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlarini to'g'ri shakllantirish — bugungi kunning eng muhim vazifasidir. Islom dini — tinchlik, mehr-oqibat, adolat va halollik dini bo'lib, yoshlar tarbiyasida ulkan o'rin tutadi. Asrlar davomida ajdodlarimiz Qur'on va Hadis asosida farzandlarini tarbiyalab, ularni jismoniy, ruhiy va ma'naviy jihatdan sog'lom etib voyaga yetkazganlar. Islomiy an'analar orqali yoshlar axloqiy jihatdan yuksak, ijtimoiy mas'uliyatli va ilmga chanqoq insonlar sifatida shakllanadi. Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida islomiy an'analarning ahamiyati, ular qanday shakllanadi, qaysi mezonlar asosida yosh avlodga singdiriladi, degan savollarga ilmiy asosda javob beriladi.

ASOSIY QISM

Islomiy an'analar — bu musulmon jamiyatlarida asrlar davomida shakllanib kelgan, Qur'on va Hadisga asoslangan, ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi odatlar, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar majmuasidir. Bu an'analar orasida: Ota-onaga bo'lgan hurmat, to'g'rilik va rostgo'ylik, halollik, odob-axloq, mehr-oqibat, zakot berish, yetim-esirlarni himoya qilish, ilm olish va ilmga hurmat, jamoatga foyda keltirish kabi qadriyatlar mavjud.

Ajdodlarimiz ilm, odob va dinni uyg'unlashtirib, o'z bolalarini «ilimli bo'l, lekin odobsiz bo'lma», deb tarbiyalaganlar.

Islomiy tarbiyaning yoshlar uchun foydasi Islomiy tarbiya yosh avlodni quyidagicha shakllantiradi: Axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi: sabr, shukr, halollik, rostgo'ylik, insof, vafodorlik.

Mas'uliyat hissini oshiradi: o'z oilasi, jamiyati va ummati oldidagi burchini anglaydi.

Ilmga muhabbat uyg'otadi: Hadisda aytilgan: "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdur."

Nafs ustidan nazoratni kuchaytiradi: harom va halol tushunchasini yaxshi tushunadi.

Yomon odatlardan saqlaydi: ichkilik, qimor, beodoblik, g'iybat, yolg'on — har biri Islomda qoralangan.

Islomiy tarbiyaning shakllanish mezonlari Islomiy tarbiya muayyan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

a) Ilmga asoslangan tarbiya: Qur'on va Hadisni tushunishga asoslangan tarbiya eng mukammal tarbiya sanaladi. Bolaga Alloh sevgisi, Payg'ambarimiz (s.a.v.) hayoti, sahobalar namunasi misolida tarbiya beriladi.

b) Amaliy o'rnak orqali tarbiya: Farzand ota-onaning amallariga qarab ulg'ayadi.

Ustozlar, jamiyat yetakchilari ibrat bo'lishi lozim.

c) Muhit mezoni: Yoshlar qanday muhitda ulg'aymoqda? Do'stlar kim? Uydagi tarbiya qanday? Mahalla, maktab, universitetda qanday ruhiyat hukm surmoqda?

d) Vaqt va bosqich: Islomiy tarbiya bosqichma-bosqich, yoshga mos, sabr bilan amalga oshiriladi. Zorlamasdan, tushuntirish orqali.

e) Texnologiya va media bilan uyg'unlik: Bugungi kunda media vositalari islomiy ruhda bo'lishi, yoshlar orasida diniy-ma'naviy kontentlar ko'paytirilishi kerak. Islomiy tarbiyani kuchaytirish yo'llari oila ichida diniy suhbatlar o'tkazish, bolalarga diniy kitoblar, bolalar uchun yozilgan hadislar va suralar berish, masjid va mahallalarda yoshlar uchun diniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilish, diniy bloglar, kanallar, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun foydali sahifalarni rivojlantirish, ustoz-shogird tizimini jonlantirish.

Ma'naviyatimizning o'zagi milliy - an'analarimiz oila bag'rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan bo'lib, asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida etib kelgan urf odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz ham milliylikimiz ramzi bo'lib, katta qadrga ega dir. Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun xavfli bo'lgan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi, yoshlarni dushmanlik ruhida tarbiyalaydigan buzg'unchi g'oyalarga qo'shimcha ta'sirlar sifatida quyidagi vositalardan ham foydalanilmoqda, bular: internet, sputnik aloqalari, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, san'at (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, kino, seriallar, musiqa, raqs) orqali salbiy ta'sir o'tkazishdir. Bunday tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba'zan oshkora va ba'zan o'ta maxfiy, ichki, yashirin bo'ladi, bu maqsadlarni bilish va o'z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma'naviyatli, g'oyaviy ongli, ma'naviy barkamol bo'lishlari shart. Faqat shunday yoshlarga bunday ta'sirlardan himoyalanişga qodir bo'ladi. Hozirgi kundagi mavjud bo'lgan mazkur mafkuraviy va ma'naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o'z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar insonni o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, o'z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o'tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo'lib etishishi uchun xizmat qiladi. Yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi.

Chunki, ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehroqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir.

Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarining barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi. Yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha, qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aqlidrok va tafakkur xukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Oldimizdagi turgan ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi xam, ertangi kunimiz, erkin va faravon xayotimiz xam, O'zbekiston HHI asrda jaxon xamjamiyatidan qanday o'rin egallashi xam – ularning barchasi, avvalambor yosh avlod, unib – o'sib kelayotgan

farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo'lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish biz ota onalarning burchimizdir"-degan. Odiljon Narzullayev Yangiyo'l tuman "Imom sulton" jome masjidi Imom xatibi

Qur'oni Karimdagi ko'plab oyatlarda ham farzand tarbiyasi haqida keltirilgan;

1. Luqmon surasi, 13-19-oyatlar

(13-oyat): "Ey o'g'ilcham! Allohga shirk keltirma. Albatta, shirk — katta zulmdir."

Tarbiyadagi asosiy tamoyil — aqidani to'g'rilash. Bolaga avvalo Allohga shirk keltirmaslikni o'rgatish lozim.

(14-oyat): "Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik..."

Yoshlarni ota-onaga hurmat qilishga o'rgatish — islomiy tarbiyaning muhim qismi.

2. Isro surasi, 23-24-oyatlar

"Parvardigoring faqat Unga ibodat qilishingizni va ota-onangizga yaxshilik qilishingizni amr etdi..."

Kattalarga hurmat, xulq-odob tarbiyasida asosiy mezonlardan biri.

3. Tahrim surasi, 6-oyat

"Ey mo'minlar! O'zlarinigizni va oilalaringizni do'zaxdan saqlang..."

Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyati.

4. Ankabut surasi, 45-oyat

"...Namoz insonni fahsh (uyatsiz) va yomon ish(lar)dan qaytarur."

Namozni yoshligidan o'rgatish — yomon ishlardan saqllovchi vosita.

5. Nisa surasi, 9-oyat

"O'zlaridan keyin o'z bolalar qolishidan qo'rqadiganlar, (ular haqida) qanday qo'rqishsa, (o'zlarining) taqvoga asoslangan so'z aytishlari lozim."

Yosh avlod haqida g'amxo'rlik qilish, yaxshi tarbiya berish musulmon ota-onalarning vazifasidir.

6. Ahqof surasi, 15-oyat

"Insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni mashaqqat bilan ko'tarib yurdi va tug'di..."

Farzand tarbiyasida onaning o'rni, hurmat va ehtirom tuyg'ularini shakllantirish.

7. A'rof surasi, 31-oyat

"Ey Odam bolalari! Har masjidga borganingizda ziynatingizni taqing..."

Tozalik va poklik — yoshlarda odob va madaniyatni shakllantiruvchi islomiy qadriyat.

8. Hujurot surasi, 11-12-oyatlar

"Bir-biringizni masxara qilmang... yomon gumon qilmang... bir-biringizni kovlamang..."

Axloqiy tarbiya: odob, tilni ehtiyot qilish, g'iybatdan saqlanish — yoshlar orasida muhim tarbiyaviy jihatlar.

9. Furqon surasi, 63-oyat

"Rahmonning bandalari — yer yuzida xokisor yuradiganlardir..."

Tavoze, kamtarlik — yoshlarda shakllanishi kerak bo'lgan islomiy xulq.

10. Mujodala surasi, 11-oyat

"Alloh sizlardan iymon keltirganlarni va ilm berilganlarni daraja bilan yuksaltirur."

Ilm olishga rag'bat — yoshlarni bilimli, mas'uliyatli qilib tarbiyalashga undovchi

asos.

XULOSA

Yosh avlod — millatning kelajagi. Ularning tarbiyasi qanday bo'lsa, ertangi jamiyat ham shunday bo'ladi. Islomiy an'analar yoshlarni nafaqat ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazadi, balki ularni jamiyat uchun foydali, axloqiy jihatdan toza, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Islom dini bu yo'lda eng mukammal manbadir. Bugungi kunda yoshlarni diniy tarbiya orqali yuksaltirish, ular orasida Qur'on va Hadis asosida yashashni targ'ib qilish, islomiy qadriyatlarni qadrlashga o'rgatish nafaqat ota-ona, balki jamiyatning ham umumiy burchidir.

Tarbiyada sabr, donolik, muhabbat va ilmu amal birligi muhim. Ana shundagina biz yuksak axloqli, sog'lom fikrli va millatga sodiq yoshlarni yetishtira olamiz.

REFERENCES

1. Qur'oni Karim.
2. Imom Buxoriy. Al-Jome' as-sahih.
3. Zarifov M. va boshqalar. "Islom ma'naviyati asoslari", Toshkent: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2020.
4. Rahmatov A. "Tarbiyaning pedagogik asoslari", Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
5. Abduqodirov A., Rustamova D. "Islom tarixi", Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. "Sahih Muslim" hadislar to'plami.